



Til o'qitish metodikasining dolzarb masalalari

Ibrohimova Durdonaxon

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda o'quvchilar til o'rganishda duch kelayotgan muammolar haqida shuningdek o'quvchilarda chet tillarini o'rganishda o'qish, gapirish, tinglab tushunish va yozish kabi ko'nikmalar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish, u muammolarga qarshi yechim topish haqida ma'lumotlar beradi.

Kalit so'zlar: chet tili, metodika, o'qish, yozish, gapirish, tinglab tushunish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы, с которыми сегодня сталкиваются студенты при изучении языка, а также устранение проблем, связанных с навыками чтения, говорения, аудирования и письма при изучении иностранного языка, дается информация о поиске решения.

Ключевые слова: иностранный язык, методика, чтение, письмо, говорение, понимание на слух.

Abstract: This article discusses the problems that students face in language learning today, as well as the elimination of problems related to the skills of reading, speaking, listening and writing in foreign language learning. gives information about finding a solution against.

Key words: foreign language, methodology, reading, writing, speaking, listening comprehension.



Bugungi kunda dunyoda innovatsion texnologiyalar, ilm olish, til o'rganish va yangi kashfiyotlar yaratish tobora rivojlanib bormoqda. Har bir manzilgohda istalgan sohada tilga bo'lgan talablar mavjud. XXI asrda til har bir sohaga bevosita kirib bordi va muqim o'rnashib oldi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda juda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifati shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rgatish" tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Til bilish mamlakat rivoji uchun juda katta hissa qo'shadi. Shu sababdan mamlakatimizda til o'rganishga qaratilgan e'tibor bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirda bog'cha yoshidanoq chet tillarini o'rganish yo'lga qo'yilgan. O'quvchilar bog'cha paytidan boshlab til ko'nikmalariga ega bo'lishmoqda. Biroq, o'quvchilarning hammasi ham chet tillarini a'lo darajada o'zlashtira olishmayapti. Bu esa hozirda mavjud bo'lgan muammolardan biridir.

Chet tillarini samarali o'qitish maqsadida o'qituvchilar turli xil o'qitish metodlaridan foydalanishadi. Bu metodikalar o'qituvchilarga katta yordam berishiga qaramasdan, o'quvchilarda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. O'quvchilardagi o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarining pastligi bunga misol bo'la oladi. O'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchilar 4 ta ko'nikmalarining har alohida vaqt ajratib o'quvchilari bilan shug'ullanishlari kerak. Bu yo'l orqali ular o'quvchilarining aynan qayerda muammoga duch kelayotganini, nimalarda xato qilayotganini bilishlari va shu xatolar ustida qayta ishlab muammolarni bartaraf etishlari mumkin bo'ladi. Maktab sharoitida o'quvchilarning tinglab tushunish sohasidagi qiyinchiliklari quyidagilardan iborat:



- Tilga oid shakliy qiyinchiliklar
- Mazmunga doir qiyinchiliklar
- Nutqiy idrok qilishning shart-sharoitidagi qiyinchiliklar
- Nutq shakliga oid qiyinchiliklar
- Tilshunoslik nuqtayi nazaridan sodir bo'ladigan qiyinchiliklar
- Audiomatn tuzilishiga oid qiyinchiliklar

Tinglab tushunish, o'quvchilarning o'qish jarayonida ma'lumotlarni o'rganish va tushunish darajasini oshirishga yo'l qo'yadigan jarayon. Bu o'quvchilarning o'zlashtirish, tahlil qilish, muhokama qilish va ma'lumotlarni o'rganishga qodir bo'lishini ta'minlaydi.

O'quvchilarda tinglab tushunishni oshirish uchun quyidagi amallar tavsiya etiladi:

1. O'quvchilarga ma'lumotni mustaqil o'rganish imkoniyatini berish: O'quvchilarga ma'lumot topish va o'rganish uchun o'zlashtirish va mustaqil ishlash imkoniyatlarini berish, shuningdek, savollar berish va muhokamalar o'tkazish.
2. Muhokama va muloqotlarni taqozo etish: O'quvchilarga maslahat bermoq, fikr almashish va ma'lumot almashish uchun imkoniyat yaratish. Muhokamalar va muloqotlar o'quvchilarning tushunish darajasini oshirishi va ko'nikmalarni mustahkamlashiga yordam beradi.
3. Amaliy mashg'ulotlar: O'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar orqali ma'lumotlarni amaliyotga aylantirish imkoniyatini berish. Bu o'quvchilarning tushunish darajasini oshirishi va ma'lumotlarni o'zlashtirishi uchun juda samarali bo'ladi.
4. O'quvchi merosini qo'llab-quvvatlash: O'quvchilarga ma'lumotlarini o'zlashtirish va tushunish darajasini oshirishda yordam bermoq, ularga qo'llab-quvvatlash va ularning muvaffaqiyatlarini ta'minlash juda muhimdir.

O'quvchilarga chet tilida gapirishni o'rgatish oraliq amali maqsad sanaladi, ya'ni ta'limning dastlabki bir necha yili davomida ular gapirish va tinglab tushunish o'rganishadi, o'qish va yozish o'qitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'qitish vositasining asosini gapirish tashkil qiladi. Shuning uchun gapirish 3 vazifani o'taydi: aloqa vositasi, o'qitish



vositasi va o'qitishning amaliy maqsadi. Chet tilida gapirish uchun avvalo nutqimizni o'sha tilga moslashtirib olishimiz kerak. Nutqni yaxshilash uchun albatta biz ko'plab mashqlarni bajaramiz va bu mashqlarni bajarish orqali gapirish ko'nikma va malakasini shakllantiramiz.

Gapirish ko'nikmasi, insonning boshqa insonlar bilan muloqot qilish, fikrlarini ifoda qilish va ma'lumot almashish qobiliyatini anglatadi. Bu ko'nikma, insonning o'zini ifoda qilish, kelajakda ishlash va o'rganish jarayonlarida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Gapirish ko'nikmasini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar mavjud:

1. Muhokama va muloqotlar: O'quvchilarga muloqotlar va muhokamalar o'tkazish orqali gapirish ko'nikmasini oshirish imkoniyatini yaratish. Ular o'z fikrlarini ifoda qilish, savollar berish va mantiqiy muhokama qilish orqali gapirish ko'nikmasini rivojlantiradilar.
2. Qo'shimcha mashg'ulotlar: O'quvchilarga qo'shimcha mashg'ulotlar orqali gapirish ko'nikmasini oshirish imkoniyatini berish. Masalan, darsda rol o'ynash, muzeylarga sayohat qilish, vaqtingizni tadbirlar bilan to'ldirish kabi amaliy faoliyatlar orqali gapirish ko'nikmasini rivojlantirishingiz mumkin.
3. Kitob va maqolalar o'qish: O'quvchilarga kitob va maqolalar orqali gapirish ko'nikmasini oshirishga yordam bermiq juda muhimdir. Bu ularning so'zlash va yozuvchi maqolalarni tahlil qilish orqali gapirish ko'nikmasini rivojlantirishi uchun foydali bo'ladi.
4. Interaktiv dars usullari: Interaktiv dars usullari, masalan, guruh ishlari, diskussiyalar, savollar va javoblar orqali gapirish ko'nikmasini oshirishga yordam beradi. Bu usullar o'quvchilarning fikr almashish va muhokama qilish qobiliyatlarini rivojlantirishi uchun juda samarali bo'ladi.

Chet tili o'qitish metodikasi manfaatini ko'zlab, birinchidan, jarfiy matndagi kod almashinish (harflarning tovushga o'tishi), ikkinchidan, odam bajaradigan tilga oid amal va uchinchidan, muloqot natijasini yetkazish tarzidagi uchtomonlama jarayon o'qish deyiladi. Hozirgi davrda o'qish xuddi ovqatlanish, uyqu, ish singari faoliyat, ya'ni ma'naviy ozuqa olish vositasi bo'lib qoldi. Ilmiy-texnik va boshqa axborotlar o'qish orqali



o'zlashtiriladi. O'quvchi chet tilidagi darslik matnlar, o'qish kitobi, turli xildagi jurnallarni o'qib, tili o'rganilayotgan mamlakatning hayoti, urf-odatlar, madaniyati tarixi haqida bilib olishi mumkin.

Chet tilida o'qish texnikalarini oshirishda sabr, mustaqil ish va amaliy amalga oshirish samarali bo'ladi. O'quvchilarga tilni amalga oshirish imkoniyatini berish, ularni muloqotlarga tortib va har kuni tilni mustaqil ravishda o'rganishlari uchun motivatsiya bermoq juda muhimdir.

1. Tilni kuzatib chiqish: Chet tilini o'rganish uchun birinchi qadam, tilning qo'llanilishi va qoidalari haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishdir. Bu tilning harakatlarini, talaffuzini va grammatikasini tushunishga yordam beradi.
2. So'zlar va so'z qatorlari yodlash: O'rganayotgan chet tilida ko'p so'zlar va so'z qatorlari yodlanishi zarur. So'zlar va so'z qatorlarini yodlash uchun tarjimalar, noto'g'ri gaplar yoki gap to'plamlari yordamchi bo'ladi.
3. Muloqot va mazmunlarga e'tibor berish: Chet tilini o'rganishda muloqotlar va mazmunlar bilan ishlash juda muhimdir. Muloqotlar orqali tilni amalga oshirish va o'rganish imkoniyatini rivojlantirishingiz mumkin.
4. Mashg'ulotlar va dasturlar: Bu tilni amalga oshirish va o'rganish jarayonlarini qiziqarliroq qiladi va o'quvchilarga amaliyotni rivojlantirishga yordam beradi.
5. Darsliklar va onlayn resurslar: Bu resurslar orqali tilning grammatikasini, so'zlarini va mazmunlarini osonlik bilan o'rganishingiz mumkin.
6. Amaliy mashg'ulotlar: Chet tilini o'rganishda amaliy mashg'ulotlar juda muhimdir. O'quvchilar tilni amalga oshirish uchun mazkur tilni kuzatib chiqish, muloqot qilish va yozuvchi mashg'ulotlar ko'rishadi. Yuqoridagi metodlardan foydalanish o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

AQSH chet tillari o'qitish metodikasining atoqli namoyondalaridan Garvard universiteti professori Uilga M. Rivers fikricha, savodli bo'lish-o'qish va yozuvni bilish, degan ma'noni anglatadi. Yozuv nutqni o'rgatishda yozuv materiali, yozuv ta'lim vositasi



ekanligi, yozma ishlar kabi masalalar hal etiladi. O'quvchilarning o'zlashtirgan til materiali va og'zaki nutq mavzulari asosida yozma fikr bayon etishlari amalda tatbiq qilingan. Yuqori sinflar til materiali va o'qish mavzulari qo'llab, o'quvchilar yozma nutq bajarmaydilar. Yozuv til materialini puxta o'zlashtirish, og'zaki nutq va o'qish malakalarini o'stirish hamda o'quv materialini o'zlashtirish darajasini tekshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Yozma ishlarni bajarish orqali o'quvchilar chet mamlakatidagi tengdoshlariga yoki qarindoshlariga xat yozish malakasiga ega bo'ladilar. O'qituvchilar yozuvni o'qitishga bag'ishlangan metodik manbalarda keltirilgan mashqlardan, ya'ni ko'chirish, eshitib yozish, erkin va ijodiy diktant, o'yin mashq, hikoya rejasini tuzish, o'qigan asarlarini qayd qilish kabi mashqlarni o'quvchilarga bajartirish lozim. Shuningdek, har bir sinfda sharoitga qarab, o'quvchilar ko'nikma va malakalarning rivojlanish darajasini hisobga olib, yozuv mashqlarini bajarishning xususiy tartiboti belgilanishi lozim. Chet tilida yozish, insonlarga global kompaniyalarda ishlash, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish va dunyo bo'ylab muloqot qilish imkoniyatlarini beradi. Chet tilida yozishni o'rganish, insonlarga xalqaro doirasida o'zlarini ifodalash imkoniyatlarini oshiradi va ularning dunyo bo'ylab aloqalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, chet tillarini samarali o'rganishda ta'lim jarayonida yaratilayotgan shart-sharoitlardan, prezidentimiz tomonidan bizga berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz kerak. Bunday jadal rivojlanib borayotgan zamonda yashar ekanmiz biz ham shu zamonga mos bo'lishimiz kerak. Til o'rganishda muammolarga duch kelib to'xtab qolish emas balki harakat qilib oldinga intilishimiz darkor. Shuningdek o'quvchi yoshlarda mavjud bo'lgan bugungi kunning ahamiyati qaratilishi mumkin bo'lgan dolzarb masalalardan hisoblanmish til ko'nikmalari bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun har ikkala tomon ham, o'qituvchi ham o'quvchi ham birdek shijoat bilan harakat qilishlari lozim. Til o'rganishda 4 ta ko'nikmaning har bir turiga alohida vaqt ajtatish, ma'lum metodlardan foydalanib, xatolar ustida ishlab ularni to'g'irlash yaxshi samara beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qarori.
2. "Chet tili o'qitish metodikasi" Jamol Jalolov.
3. Bakhridinova, D (2015). How to subdue difficulties in listening skill. Xorijiy tillarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. Samarqand, 18.
4. Baymatova, A, & Bakhridinova, D (2020). "EVFEMIZM"-NUTQ VOSITASI SIFATIDA. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Abduaziz Baymatov. (2021) Chet tillarini o'qitish metodikasining dolzarb masalalari.
6. Bakhridinova Dildora Oktamovna. "The etymological gradual development of euphemisms". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year:2020, Volume:10, Issue:10. First page:(578) Last page:(583). Online ISSN:2249-7137